YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna
Guliston davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti
Tadjibayeva Matlyuba Daniyar qizi
Guliston davlat pedagogika instituti qozoq tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasi haqida nazariy fikrlar va yosh avlodni tarbiyalashda tolerantlik madaniyatini shakllantirish borasida so‘z boradi. Yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, o‘g‘il-qizlar qalbi va ongida mafkuraviy immunitet shakllantirishdan iborat ekanligi haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, ravnaq, mintaqah, globallashuv, bag‘rikenglik tamoyili, farovon hayot, deklarasiya, madaniyat, diniy e’tiqod, dinlararo hamjihatlik, umuminsoniy qadriyat.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerakki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin hamda uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emasdir. Dunyoda globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan bugungi kunda turli madaniyat va dinga mansub xalqlar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni

rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega [7; 167-173]. Zero, bugun yakka shaxs yoki alohida millat va davlatning o‘z qobig‘idan chiqmasdan taraqqiy etishi tasavvurga sig‘maydi. Bunda esa, avvalo, bag‘rikenglik tamoyili ustuvor bo‘lmog‘i zarur. O‘z navbatida, mazkur tamoyilning qaror topishi har qanday davlatning tinch, osoyishta va farovon hayotiga ham kafolatdir.

YUNESKO ustavida ta’kidlanganidek, o‘zaro bir-birini tushunmaslik butun insoniyat tarixi davomida o‘zaro shubhalanish va ishonchsizlikning ildiz otishiga sababi bo‘lgan, bu esa oqibatda turli ixtiloflar va nizolarga olib kelgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning “Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydilar” degan, qozq xalqining “Yuzi boshqa – yuragi bir, tili boshqa – tilagi bir” degan naql so‘zlarida hamda qozoq xalqining ulug‘ mutafarrik shoiri Abay Qunonboyevning “Odamzotni suyushning ikki sharti bor: biri – “bavurim (jigarim)” deb, ikkinchisi – “Haq yo‘li shu deb” [8] singari fikrlari chuqur mazmunga egaligini qayd etish lozim. Bag‘rikenglik – boshqa fikr va qarashga toqatli bo‘lish, o‘ziga ma’qul va maqbul bo‘lmagan e’tiqod va ibodatlarni cheklamaslik, qoralamaslik kabilarda namoyan bo‘ladi.

Bag‘rikenglik bir-birini anglash, tushunish va qabul qilish demakdir. Yer yuzidagi turfa madaniyatga hurmat bilan yondashishga ham shu ta’rif beriladi. Bilim, samimiyat, vijdon va e’tiqod uyg‘unligi natijasida yuzaga keladigan bu tushuncha faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy, huquqiy ehtiyoj ham sanaladi. Eng asosiysi, bag‘rikenglik tufayli tinchlik ta’minlanadi, turli nizo, urushlar kelib chiqishining oldi olinadi.

Diyorimizda fuqarolar totuvligi, barqarorligi, turli millat vakillari tinchligi va hamjihatligini ta’minlash, vatandoshlarimiz ongida ko‘pmillatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar, do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirish borasida ko‘plab samarali ishlar olib borilmoqda [3].

Ko‘pmillatli respublikamizda o‘zbeklar asosiy etnik guruhni tashkil qiladi. Shu bilan birga rus, qoraqalpoq, tatar, qozoq, tojik kabi ko‘plab millat vakillar ham yashaydi. Ularning hammasi Konstitutsiyada kafolatlangan teng huquqlardan foydalanadi. Qomusimizning 19-moddasida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlikkga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ta’lim islohoti orqali o‘quv jarayonida millatlararo hamjihatlik, e’tiqod va madaniyatlar o‘rtasidagi hurmatga asoslangan tarbiya berishga alohida ahamiyat beriladi. Shuningdek, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatini asrab-avaylash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, o‘g‘il-qizlar qalbi va ongida mafkuraviy immunitet shakllantirishdan iborat.

O‘zbekistonda etnik va milliy kamsitishga qarshi qonunchilik bazasi mavjud. Milliy va etnik kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qonun asosida shunday holatlarga qarshi kurashish uchun alohida mexanizm ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, ijtimoiy adolat va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan qonun amaliyotini yanada mustahkamlash talab etiladi.

Jamiyatdagi bag‘rikenglikni saqlashda oilaning ham roli katta. Oila mustahkamligi, xonadondagi to‘g‘ri tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu yoshlar o‘rtasidagi hurmat va qadr-qimmat, turli millatlarning o‘zaro munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish orqali davlatni mustahkamlash, xavfsizlikni muhofaza qilish, ularda jamiyat tinchligi va farovonligini ta’minlash mas’uliyatini kuchayti-rish, ayniqsa o‘g‘il-qizlarni milliy qadriyatlar asosida hayotga tayyorlash mumkin.

Ma’lumki, bag‘rikenglik g‘oyasi – turli millat va elatlar vakillarining bir zamin, bir vatanda olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor hamda hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan milliy qadriyatlarimiz ezgulik g‘oyalariga asoslanib, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanib kelgan. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka chorlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Аҳмад ал-Фарғоний ҳайкалининг очилишига бағишланган маросимда (24.10.1998 й.) сўзланган нутқдан// Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 240.

2. Декларация принципов толерантности Генеральной конференции ЮНЕСКО от 16 ноября 1995 года. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_ conv/declarations /toleranc (Murojaat sanasi: 24.06.2025).

3. Ishmuratova S. Xalqaro bag‘rikenglik kuni.(Murojaat sanasi: 24.06.2025. http://nhrc.uz/oz/news/m14290)

4. Pardayev A.Ch.. Bag‘rikenglik tushunchasining global ahamiyat kasb etishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7. (E)ISSN: 2181-1784 4 (5), May, 2024. 167-173.

5. Xosilmurodov I. O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. December 2021. Общество и инновации 2(11/S):16-24